

YENGIL AVTOMOBILLARNING OYNA REZINA ZICHLAGICHLARINI ISHLAB CHIQARISH JARAYONIDAGI NUQSONLAR TAHLILI

Komolov Azizbek Zokirjon o‘g‘li

Andijon Mashinasozlik instituti magistranti

E-mail: akamolov1797@gmail.com

ANNOTATSIYA

Oxirgi yillarda yengil avtomobillar uchun rezina detallarni mahalliy xom ashyolar asosida ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan. Bulardan biri cobalt avtomobilining oyna rezina zichlagich butlovchi qismini ishlab chiqarish jarayonida mexanik yuzaga keladigan nuqson va nuqson tahlili.

Kalit so‘zlar: rezina, oyna, ekstruder, zichlagich, arra, mahalliy lashtirish, cobalt.

KIRISH

Bugungi kunda maxalliy korxonalar sharoitida avtomobil rezina detallarini ishlab chiqarishning o‘ziga xos jixatlarini va ishlab chiqarishda mahsulot sifatiga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganish va takomillashtirish orqali sifatli maxsulot ishlab chiqarish hamda yuqori unumdonorlikka erishish dolzarb masaladir.

ASOSIY QISM

Rezina traktor va avtomobil sanoatida keng qo‘llaniladi, chunki rezinaning asosiy tarkibiy qismi hisoblangan kauchuk juda elastik bo‘ladi. Rezina juda kuchli (1000 foizgacha) deformatsiyalanishi mumkin, lekin yuklanish olinganidan keyin rezina avvalgi holatiga deyarli butunlay qaytadi. Bundan tashqari, rezinaning kimyoviy chidamliligi, yemirilishga qarshilik ko‘rsatish qobiliyati yuqori, yaxshi elektr izolyatsion xossalarga ega, zichligi uncha katta emas. Hozirgi zamon avtomobillarida bir necha yuz xil rezina detallar mavjud. Ishlab chiqariladigan kauchukning anchagina qismi (taxminan 60 foizi) avtotraktor texnikasi uchun shinalar ishlab chiqarishga sarflanadi. Rezina buyumlarni sinchlash. Rezina detallarni mustahkamligini oshirish uchun ularni boshqa puxtarloq (gazlama, simli karkas, metall tolalari) elementlar (armaturalar) bilan sinchlanadi. Buning natijasida olinadigan rezina buyumning mustahkamligi asosan rezina tarkibidagi armirlovchi elementning mustahkamligiga asosan aniqlanadi. Sinchlangan rezina detallarning cho‘zilishdagi elastikligi sof rezinaning elastiklididan sezilarli darajada kam bo‘ladi, ammo ularni egilish va siqilishdagi talab etilgan chegaradagi deformatsiyalanish xususiyatlarini saqlab qoladi.

Andijon shahrida joylashgan Ma’suliyati Cheklangan Jamiyat shaklidagi

«Uz-Metertech» qo'shma korxonasida yengil avtomobillar oynalari uchun rezina zichlagichlarini mahalliy hom ashylardan foydalanib ishlab chiqarilmoqada.

Ishlab chiqarilayotgan butlovchi qisimlarni ishlab chiqarish jarayonida bir nechta kamchiliklar tufayli detallar zarar yetib nuqsonlar kelib chiqmoqda, bulardan biri mexanik arra yordamida ishlov berish jarayonida.

Ekstruderdan to'xtovsiz chiqib turadigan yarim zagatovka mexanik arra yordamida kesiladi. Kesish vaqtida zagatovka to'xtovsiz kelib turgani tufayli kesish vaqtida arrani qisib qoladi va nuqson kelib chiqadi,





nuqsonli detail



nuqsonsiz detail

shuning uchun zagatovkani vaqtincha to'xtatib turish kerak. Nuqsonni y'oq qilish uchun qisqichdan foydalanib tajriba o'tgazdib, bu tajribadan ijobiy natija olindi.



XULOSA

Ishda keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib, mexanik qisqichdan foydalanish yaxshi natija berdi. Nuqsonsiz bo'lgan maxsulot olish imkonini beradi degan xulosaga kelish mumkin. Bu usul eng arzon va soddaligini hisobga olsak, ulardan foydalanishni kengaytirish ushbu maqolada keltirilgan istiqbolli texnikalar, shu jumladan avtosanoati mahsulotlari yordamida mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. A.C. To'raxonov. "Metallshunoslikvatermikishlash" "O'qituvchi" nashiryoti Toshkent – 1968
2. Rezina qorishmalarini ishlab chiqarish texnalogiasi asoslari Toshkent.
3. Transport vositalarida ishlatiladigan nometal materiallar fanidan o'quv- uslubiy majmua Namangan Muxandislik- Pedagogika instituti